

**KORXONALARGA AVTOMATLASHTIRISH
TEKNOLOGIYALARINING JORIY ETILISHI****Ulug‘boboyeva Mavjudaxon Maripjonovna ¹**¹ *Farg‘ona davlat texnologiya universAvtomashtirisheti**Yengil sanoat muhandisligi kafedrası katta o‘qAvtomashtirishuvchi*m.ulugboboeva@ferpi.uz**MAQOLA MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:16.06.2025**Revised: 17.06.2025**Accepted:18.06.2025***KALIT SO‘ZLAR:***yengil sanoat, tikuvchilik
sohasi, texnika taraqqiyoti,
O‘rta Osiyo kashtachiligi,
zamonaviy tikuv mashinalari,
texnologiya, joriy etilishi,
integratsiya, eksport,
afzalliklar.**Ush bu maqolada mamlakatimizda
yildan-yilga rivojlanib kelayotgan yengil
sanoat sohasidagi tikuvchilik yo‘nalishida
Korxonalarda avtomatlashtirish sohasida
yangi texnologilar va zamon talabi asosida
yaratish, zamonaviy tikuv mashinalari orqali
yangi va zamonaviy kashta na‘munalarini
yaratish xususida so‘z
yurAvtomashtirishilgan*

KIRISH. Axborot texnologiyalari bugungi kunda sanoatning deyarli barcha tarmoqlarida, xususan, yengil sanoatda ham hal qiluvchi rol o‘ynay boshladi. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish, boshqaruv, marketing va logistika kabi jarayonlarni optimallashtirishda keng foydalanilmoqda. Yengil sanoat — bu to‘qimachilik, trikotaj, tikuvchilik, charm-poyabzal, gilamchilik kabi tarmoqlarni o‘z ichiga olgan soha bo‘lib, aynan shu yo‘nalishlarda Avtomatlashtirish texnologiyalari katta o‘zgarishlarni olib kirmoqda. Yurtimizda yengil sanoat sohasi so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, global raqobatbardoshlikni oshirishga intilmoqda. Ushbu jarayonda axborot texnologiyalarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yengil sanoat sohasida Avtomatlashtirish

texnologiyalarining integratsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi[1].

Korxonalarda ishlab chiqarishda avtomatlashtirish texnologiyalarining eng katta ta'siri mahsulot dizayni va modellashtirish bosqichlarida seziladi. Avval ishlab chiqaruvchilar mahsulot maketlarini qo'l bilan chizishgan bo'lsa, hozirda bu ishlar kompyuterda bajariladi. Computer-Aided Design dasturlari yordamida kiyim-kechak, poyabzal va boshqa mahsulotlar virtual muhAvtomatlashtirishda loyihalanadi. Bu usul dizayn jarayonini tezlashtiribgina qolmay, mahsulotlarning aniqligini ham oshiradi. Korxonalarda avtomatlashtirish asosidagi avtomatik kesish uskunalari (laserli yoki raqamli boshqaruv ostida ishlovchi kesgichlar) mahsulotni maksimal aniqlikda kesishga imkon beradi. Bu chiqindilarni kamaytiradi va resursdan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan tikish mashinalari ishchilarning yukini yengillashtirib, bir me'yorda sifatli mahsulot tayyorlashga yordam beradi[2]. Dasturiy vositalar yordamida mahsulotda nuqson bor-yo'qligi aniqlanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish statistikasi real vaqt rejimida monAvtomatlashtirishoring qilinadi va aniqlangan muammolarga zudlik bilan aralashiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot saqlash, yetkazib berish va taqsimlash tizimlarida avtomatlashtirish yechimlar qo'llanilmoqda. Enterprise Resource Planning tizimlari orqali butun ishlab chiqarish jarayoni — xomashyodan tayyor mahsulotgacha — yagona axborot bazasida boshqariladi[3]. Bu esa vaqt va xarajatni qisqartiradi, noto'g'ri hisobotlar va isrofgarchiliklarning oldini oladi.

Xozirgi yengil sanoat korxonalari o'z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga internet orqali taklif qilmoqda. Internet-do'konlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali mahsulot reklama qilinmoqda. Customer Relationship Management tizimlari orqali xaridorlar bilan aloqalar boshqariladi va mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi oshirilmoqda. Misol uchun: suv va elektr energiyasining sarfini nazorat qilish, chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini boshqarish tizimlari yengil sanoatda ekologik barqarorlikka erishishga xizmat qilmoqda[4].

Ishlab chiqarishda avtomatlashtirish sohasida ta'lim va kadrlar tayyorlash zamonaviy yengil sanoat ishlab chiqarishni raqamlashtirish, dizaynni Avtomatlashtirish va mahsulotni innovatsion yechimlar asosida yaratishni talab qilmoqda. Shu sababli, ushbu sohada axborot texnologiyalari bilan tanish, zamonaviy texnikada ishlay oladigan, amaliy va nazariy bilimlarga ega mutaxassislar katta talabga ega bo'lib bormoqda[5].

Xozirgi kunda dunyo iqtisodiyotida innovatsiyalar va texnologiyalar asosiy raqobat omiliga aylangan. Ayniqsa, yengil sanoat sohasida zamonaviy avtomatlashtirish texnologiyalarining joriy etilishi innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, yangi

mahsulotlar ishlab chiqish va bozorga ilg'or texnologik echimlar bilan kirish imkonini bermogda. O'zbekistonda ham bu yo'nalishdagi startaplar va innovatsion tashabbuslar tobora faollashmogda.

Yangi loyihalar asosan yosh mutaxassislar, talabalar, ilmiy xodimlar va texnoparklar doirasida shakllanadi. Ko'p hollarda bu g'oyalar avtomatlashtirish va sanoat yo'nalishining kesishgan nuqtasida tug'iladi[6].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki O'zbekistonda yengil sanoat sohasida avtomatlashtirish texnologiyalarining jadal joriy etilishi nafaqat ishlab chiqarish jarayonini zamonaviylashtirmogda, balki sohaning sifat, samaradorlik va xalqaro bozorda raqobatbardoshlik darajasini ham oshirmogda. Bu boradagi harakatlar tizimli davom ettirilsa, mamlakatimiz yengil sanoati global bozorning muhim o'yinchilaridan biriga aylanishi shubhasizdir.

Adabiyotlar:

[1]. Tursumatova Shaxlo Samiyevna, & Mamatqulova Saida Raxmatovna. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. Innovative Technologica: Methodical Research Journal,3(05),1–10.

[2].Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knAvtomatlashtirish production. International Journal of Advance Scientific Research.2(03).16-21.

[3].Raxmatovna.M.S.(2022).Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knAvtomatlashtirish production; basic raw materials, their composAvtomatlashtirishion and properties.Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5,May,2022.7

[4]. Raxmatovna.M.S.(2021). The description of perspective fashion trends in men's clothing. Innovative Technological:Methodical Research Journal,2(10),15-20.

[5].Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(9), 18-23.

[6]. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (Avtomatlashtirishobiad).